

QORIN BO'SHLIG'I ORGANLARINING JOYLASHUVI VA KLINIK AMALIYOTDAGI AHAMIYATI

Akmalova Sevinch

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti

Biologiya kunduzgi ta'lim yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqola qorin bo'shlig'i organlarining anatomik joylashuvi, ularning o'zaro munosabati va klinik amaliyotdagi ahamiyatini o'rganishga asoslangan. Mazkur maqolada qorin bo'shlig'ining topografik anatomiyasi, uning tarkibiy qismlari va klinik ahamiyati tahlil qilingan. Zamonaaviy diagnostika usullari (ultrativush, KT, MR) va ularning qorin bo'shlig'i patologiyalarini aniqlashdagi ahamiyati ham ko'rsatib o'tilgan. Chunki jarrohlik amaliyotida, diagnostika usullarida hamda ichki kasalliklarni davolashda organlarning anatomik lokalizatsiyasi bo'yicha bilimlar aniqlikni oshiradi va asoratlarning oldini olishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar qorin bo'shlig'i organlarining yoshga, jinsga, tana tuzilishiga hamda patologik holatlarga qarab farqlanishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Qorin bo'shlig'i, organlarning joylashuvi, topografik anatomiya, klinik amaliyot, jarrohlik, diagnostika, ultrativush tekshiruvi.

Аннотация: Статья основана на изучении анатомического расположения органов брюшной полости, их взаимосвязи и значения в клинической практике. В статье анализируется топографическая анатомия брюшной полости, ее компоненты и клиническое значение. Также показаны современные методы диагностики (УЗИ, КТ, МРТ) и их значение в выявлении патологий брюшной полости. Поскольку в хирургической практике, диагностике и лечении внутренних заболеваний знание анатомической локализации органов повышает точность и служит профилактикой осложнений. Исследования показывают, что органы брюшной полости различаются в зависимости от возраста, пола, строения телосложения и патологических состояний.

Ключевые слова: Брюшная полость, расположение органов, топографическая анатомия, клиническая практика, хирургия, диагностика, ультразвуковое исследование.

Abstract: This article is based on the study of the anatomical location of the abdominal organs, their relationship and significance in clinical practice. This article analyzes the topographic anatomy of the abdominal cavity, its components and clinical significance. Modern diagnostic methods (ultrasound, CT, MRI) and their significance in identifying abdominal pathologies are also shown. Because in surgical practice, diagnostic methods and treatment of internal diseases, knowledge of the anatomical localization of organs increases accuracy and serves to prevent complications. Studies

show that the abdominal organs differ depending on age, gender, body structure and pathological conditions.

Keywords: Abdominal cavity, location of organs, topographic anatomy, clinical practice, surgery, diagnostics, ultrasound examination.

Kirish: Inson organizmi murakkab tuzilishga ega bo'lib, uning ichki organlari turli anatomik bo'shliqlarda joylashgan. Shulardan eng yirigi va murakkab tuzilganlaridan biri bu- qorin bo'shlig'idir. Qorin bo'shlig'i nafaqat ovqat hazm qilish tizimi organlarini, balki siydik ajratish tizimiga oid muhim tuzilmalarni ham o'z ichiga oladi. Bu bo'shliqda jigar, oshqozon, ingichka va yo'g'on ichak, me'da osti bezi, taloq, buyraklar, siydik yo'llari va boshqa hayotiy zarur organlar joylashgan bo'lib, ularning aniq topografiyasi inson salomatligi va klinik amaliyotda juda muhim o'rin tutadi. Qorin bo'shlig'i organlarining anatomik joylashuvi va topografik xususiyatlarini chuqur bilish klinik tibbiyotda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu bilimlar jarrohlik amaliyotida to'g'ri yo'nalishda kesma qilish, qon tomir va nervlarni saqlash, operatsiyadan keyingi asoratlarning oldini olish imkonini beradi. Bundan tashqari, ichki kasalliklar diagnostikasida ham organlarning aniq lokalizatsiyasini bilish shifokorlarga ultratovush, rentgenologiya, kompyuter tomografiyasi va magnit-rezonans tomografiya kabi zamonaviy vizualizatsiya usullaridan samarali foydalanishga yordam beradi. Shuningdek, qorin bo'shlig'i organlarining joylashuvi nafaqat anatomiya, balki fiziologiya, patofiziologiya, jarrohlik, ichki kasalliklar va travmatologiya fanlari uchun ham asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Organlarning o'zaro nisbati, ularning fasial qavatlar, qon tomirlar va limfa tugunlari bilan aloqasi kasalliklarning patogenezi va tarqalishini tushunishda muhimdir. Masalan, appenditsitda og'riqning lokalizatsiyasi yoki yoki jigar sirrozida portativ gipertinziya belgilarini aniqlash organlarning aniq topografik joylashuviga bog'liqdir. Qorin devori murakkab tuzilishga ega: ular mushak, pay, fastsiya va yog' qatlamlaridan tarkib topgan. Bu qatlamlar organlarni tashqi ta'sirlardan himoya qiladi, ularning anatomik joylashuvini saqlab turadi hamda ichki bosimni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Orqa devorni esa bel umurtqalari, katta bel mushaklari va qisman tos suyagi hosil qiladi. Qorin bo'shlig'i ichida organlar bevosita qorin devoriga yopishib turmaydi, balki ular seroz qavat-periton bilan qoplangan. Periton ikki qavatdan iborat: parietal (devoriy) va visceral (ichki organlarni qoplaydigan). Ularning orasida peritonel bo'shliq joylashgan bo'lib, unda oz miqdorda seroz suyuqlik mavjud. Bu suyuqlik organlarning erkin harakatlanishi va bir-biriga ishqalanmasdan faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Qorin bo'shlig'i shartli ravishda yuqori, o'rta va pastki qismlarga bo'linadi. Yuqori qism- diafragmaga yaqin bo'lgan hudud (epigastriy), o'rta qism-kindik atrofi (mezogastriy), pastki qism esa chanoq bo'shlig'iga yaqin hudud (gipogastriy) hisoblanadi. Shuningdek, klinik amaliyotda shifokorlar qorin bo'shlig'ini

9 ta sohaga bo'lib o'rganadilar: o'ng va chap qovurg'a osti, epigastriy, o'ng va chap yonbosh, kindik sohasi, o'ng va chap chanoq sohasi hamda gipogastriy. Bu bo'linish kasalliklarni aniqlashda va palpatsiya usullarida muhim diagnostik ahamiyatga ega.

Qorin bo'shlig'idagi organlar, jumladan oshqozon, ichaklar, jigar, buyraklar va boshqalar, o'zaro joylashuvi hamda vazifalariga ko'ra, turli kasalliklarda klinik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ularning anatomik tuzilishi va joylashuvi haqidagi ma'lumotlar diagnostika (masalan, rentgen, UZI, KT) va davolash (masalan, operatsiyalar) uchun zarur bo'lib, bu esa bemorlarni aniq va samarali davolashga yordam berado. Asosiy organlar va ularning joylashuvi:

Me'da (Oshqozon): qorin bo'shlig'ining yuqori qismida, diafragmadan keyin, jigarning chap tomonida joylashgan.

Ichaklar (ingichka va yo'g'on): qorin bo'shlig'ining ko'p qismini egallaydi, me'daning ostidan boshlanib, to'g'ri ichakka tutashadi.

Jigar: o'ng yuqori qorin bo'shlig'ida, diafragmaning ostida joylashgan eng katta bez.

Buyraklar: orqada, bel sohasi yaqinida, umurtqa pog'onasining ikki yonida joylashgan.

O't pufagi: jigarning pastki yuzasida joylashgan kichik a'zo.

Pankreas (oshqozon osti bezi): me'da orqasida va o'n ikki barmoq ichakning C-shaklidagi qismi orqasida joylashgan.

Jinsiy a'zolar (ayollarda): bachadon, tuxumdonlar va bachadon naylari kichik chanoq qismida, erkaklarda esa prostata va urug' kanallari ham shunga yaqin joylashgan.

Klinik amaliyotdagi ahamiyati. Diagnostika: organlarning joylashuvini bilish shifokorlarga bemorda og'riq qayerda paydo bo'lganini aniqlashga va kasallikni to'g'ri tashxislashga yordam beradi. Masalan, o'ng yuqori qorin sohasidagi og'riq jigar yoki o't pufagi kasalliklariga ishora qilish mumkin.

Operativ aralashuvlar: jarrohlar operatsiya vaqtida qorin bo'shlig'i anatomiyasini yaxshi bilishi kerak, bu esa jarohatsiz operatsiya o'tkazish va asoratlanish xavfini kamaytirish imkonini beradi.

Bemorlarning holatini baholash: palpatsiya (qo'llab tekshirish) orqali organlarning kattalashganini yoki joyida o'zgarganini aniqlash mumkin. Bu esa turli o'smalar, yallig'lanishlar va boshqa o'zgarishlarni ko'rsatishi mumkin.

Xulosa: Qorin bo'shlig'i organlarining joylashuvi va klinik ahamiyati haqidagi bilimlar nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliy tibbiyotning turli sohalarida-shoshilinch davolashdan onkologiyagachabo'lgan ko'lamli masalalarni yechishda asosiy vosita hisoblanadi. Ushbu sohada olib borilayotgan doimiy tadqiqotlar yangi diagnostika va davolash usullarini ishlab chiqish, shuningdek tibbiyot ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, qorin bo'shlig'i organlari topografiyasining

zamonaviy tibbiyotda diagnostika, jarrohlik va transplantologiya kabi sohalarda qo'llanilishi klinik anatomiya fanining amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Shu sababli ushbu sohadagi tadqiqotlarni kengaytirish va yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish kelajakda tibbiyotning yanada rivojlanishiga xizmat qladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дударев В. А. и др. Нарушения в системе гемостаза при кистозно-очаговых поражениях печени у детей и пути медикаментозной коррекции //Педиатрическая фармакология. - 2009. - Т. 6. - №. 3. - С. 139-142.
2. Джабборов Ш. Р., Киргизов И. В., Дударев В. А. Стимуляция регенерации печени после эхинококкэктомии у детей //Справочник врача общей практики. - 2011. - №. 4. - С. 54-57.
3. Goedecke M, Kühn F, Stratos I, Vasan R, Pertschy A, Klar E. No need for surgery? Patterns and outcomes of blunt abdominal trauma. *Innov Surg Sci.* 2019;4(3):100-107. doi: 10.1515/iss-2018-0004.
4. Mustafakulov I. B. et al. Severe associated trauma to the abdomen diagnosis and treatment //European journal of pharmaceutical and medical research. - 2020. - Т. 7. - №. 6. - С. 113-116.
5. Khadzhibaev F. A., Mansurov T. T., Elmurodov G. K. Diagnostics of acute intestinal obstruction //Emergency Medicine Bulletin. - 2021. - Т. 14. - №. 1. - С. 77-83.